

## XX ASR BOSHLARIDAGI ADABIYOT NAZARIYASIGA DOIR ILK MANBA

Nodira Egamqulova

PhD, dotsent

[nodiraegamkulova1@gmail.com](mailto:nodiraegamkulova1@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11743792>

**Annotatsiya.** Turkistonlik jadidlar yangi usul maktablari uchun turli dastur hamda darsliklar hozirlashga kirishar ekanlar, bu jarayon bevosita o'lka milliy tarixi, jug'rofiyasi, madaniyati, adabiyotshunosligi yaratilishining ham debochasi bo'ldi. Milliy adabiyot tarixi, nazariyasi, adabiy tanqidni shakllantirishga bo'lgan urinishlar avvalo milliy matbuotda boshlandi, keyinchalik o'rta va yuqori sinflar uchun yozilgan adabiyot darsliklarida asosiy bosqichga ko'tarildi. Mana shunday darsliklardan biri – Abdurahmon Sa'diy tomonidan yozilgan "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" 1924-yil mart oyida Toshkentda nashr etildi.

**Kalit so'zlar:** Turkiston. Usuli jadid. Adabiyot. Darslik. Abdurahmon Sa'diy.

### THE FIRST SOURCE ON THE THEORY OF LITERATURE OF THE EARLY 20TH CENTURY

**Abstract.** As Turkestan modernists began to prepare various programs and textbooks for new method schools, this process directly became a prelude to the creation of the country's national history, geography, culture, and literary studies. Attempts to form the history, theory, and literary criticism of the national literature first began in the national press, and later rose to the main stage in literature textbooks written for middle and upper classes. Here is one of such textbooks - "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" written by Abdurrahman Sa'di was published in March 1924 in Tashkent.

**Keywords:** Turkestan. The method is new. Literature. Textbook. Abdurrahman Saadi.

### ПЕРВЫЙ ИСТОЧНИК ПО ТЕОРИИ ЛИТЕРАТУРЫ НАЧАЛА 20 ВЕКА.

**Аннотация.** Поскольку туркестанские модернисты начали готовить различные программы и учебники для школ нового метода, этот процесс непосредственно стал прелюдией к созданию отечественной истории, географии, культуры и литературоведения. Попытки формирования истории, теории и литературной критики национальной литературы начались сначала в отечественной прессе, а затем поднялись до основного этапа в учебниках литературы, написанных для средних и высших классов. Вот один из таких учебников - «Уроки практической и теоретической литературы», написанный Абдурахманом Саади, был издан в марте 1924 года в Ташкенте.

**Ключевые слова:** Туркестан. Метод новый. Литература. Учебник. Абдурахман Саади.

**Kirish.** XX asr boshlari Turkistonda kechgan jarayonlar birgina ijtimoiy-siyosiy emas, balki madaniy-adabiy hayotda ham o'z izlarini qoldirdi. Bu davrga kelib adabiy hayot, matbuot, maorif, teatr, xossatan, adabiyotshunoslik muammolari, masalalari birlashdi, markazlashdi.

Dastlab milliy matbuot nashrlarining paydo bo'lishi, yangi usul maktablarining ochilishi va yangi dars kitoblarining yaratilishi negizida kurtak ochgan adabiyotshunoslik o'z qamrov doirasiga matbuot, teatr, ta'lim, til, imlo, tarix, madaniyat kabi keng sohalarga oid masalalarni ham kiritdi.

1905 yil voqealari, xususan, Turkistonda matbuot ishlarining yoʻlga qoʻyilishi bilan turk, tatar, ozarbayjon, boshqird mutafakkirlari bilan boʻlgan aloqalar yanada mustahkamlandi.

Ahamiyatli tarafi shundaki, koʻpchilik qardosh taraqqiyparvarlar turkistonliklar bilan aloqa oʻrnatibgina qolmay, bevosita Turkistonga kelib matbuot, maorif, teatr, huquq va koʻplab sohalarda turkistonliklar bilan yelkama-yelka turib faoliyat olib bordi, oʻz tajribalari bilan oʻrtoqlashdi. Bir qancha sabablar bilan Turkistonga kelib, shu yerda yashab qolgan qardosh tatar-boshqird xalqlarining Turkistonda faoliyat olib borgan tatar muharrirlari sifatida Ismoil Obidiy, Abdurauf Muzaffarzoda, Ahmad Zaki Validiy, Noʻshiravon Yovushev, Shokir Muxtorov, Abduramon Saʼdiy, Ibrohim Tohiriy, Ahmadjon Bektemirov, Husayn Makayev, Kabir Bakir, Fotih Bakirlarni misol qilish mumkin. Xuddi shunday, Ozarbayjondan kelib ish olib borgan Muhammad Amin Afandizoda, Jalol Yusufzoda, Piri Mursalzoda [Doʻstqorayev, 2009: 318] kabi fidoyilar oʻzbek madaniyati rivojiga ulkan hissa qoʻshishgan. Yuqorida nomlari keltirilgan zotlar birgina matbuot sohasida emas, balki ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida qizgʻin faoliyat olib borishgan, Turkistondagi jadidchilik harakatining rivojiga oʻz hissalarini qoʻshishgan. Biroq haligacha bu kabi turk, tatar, boshqird ziyolilarining Turkistondagi faoliyati yetarlicha oʻrganilgan emas. Shunday taraqqiyparvarlardan biri Abdurahmon Saʼdiydir. Abdurahmon Saʼdiy 1889-yili

Boshqirdistonning Ufa shahri yaqinida Taymev qishlogʻida mudarris oilasida tugʻilgan, asli tatar millatiga mansub. Boshlangʻich taʼlimni Orenburgdagi Muhammadiya madrasasida olgandan soʻng Istanbul universitetida oʻqigan. 1921-yildan Toshkentda Maorif institutida, SAGU (Oʻrta Osiyo davlat universiteti)da Sharq mumtoz adabiyotidan dars bergan. 1948-yildan umrining oxiriga qadar Oʻzbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutida yetakchi ilmiy xodim sifatida faoliyatda boʻlgan. Adabiyot nazariyotchisi sifatida “Qavoyidi adabiya va unga ilova”, “Adabiyot usullari”, “Adabiyot muallimi” (tatar va boshqird tillarida), “Goʻzal sanʼat dunyosida”, “Amaliy ham nazariy adabiyot darslari”, “Adabiyot muallimi”, “Simvolizm toʻgʻrisida”, “Futurizm”, “Kompleks usuli” kabi risola, maqola va oʻquv qoʻllanmalari muallifidir.

Darslik 198 sahifadan iborat. Kirish ikki qismdan iborat: “Boshlangʻich” va “Kirish”.

Boshlangʻichda muallif darslikning tuzilishida “tutulgʻon asos va yoʻllar”dan soʻz ochadi va shunday anglatadi:

“1923 inchi yil fevrol oyida Turkiston jumhuriyati xalq maorif komissiyarligining ilmiy kengashi yonidagi oʻzbek bilim hayʼati oʻzbek tilida oʻzbek oʻrta maktablari uchun darslik oʻlaroq bir adabiyot nazariyasi tuzub bermagimiz toʻgʻrisida murojaat etgan, shul haqida tuzilgan plan va mundarijalarning taqdim etishim soʻragʻan edi... Koʻb qiyinlik va katta masʼuliyatlarni ustimizga ilib, ishga kirishdik. Natijada shu oldingizgʻa qoʻyulgʻon darslik maydongʻa kelib, 23-yilning sentyabriga ulgurtib berdik. Kitobning tartibida ilmiy hayʼatning fikr va tilaklarin eʼtiborgʻa oldiq. Shuning uchun ilgari plan va mundarijalar, proʻgrammamiz shu quyidagʻicha birmuncha oʻzgarishlarga uchradi” [Saʼdiy, 1924: I].

Anglashilganidek, darslik maxsus topshiriq asosida yaratilgan boʻlib, uning “plan va mundarijasi” oʻzbek bilim hayʼati muhokamasi bilan bir qatorda qozoq va turkman bilim hayʼatlari ilmiy kengashida ham tekshirilgan. Muhokama natijasi oʻlaroq bir qancha oʻzgartirishlarga uchragan.

Darslik avvalida eʼtibor berilishi kerak boʻlgan muhim nuqtalarga ishora berib oʻtiladi.

Kitobda adabiyot nazariyasiga o'zgaras qoidalar yig'indisi sifatida qaralмай,

“o'qig'uvchilarg'a tag'ida kengrak, tag'ida erkinrak, hurrak, bir yo'l bilan o'ylash, shundog' bir yo'l bilan tushunish uchun maydonni hamon erkin qo'ya bordi” [Sa'diy, 1924: II].

Darslik o'z nomiga ko'ra, faqatgina “qurug' nazariyalargina” berilmasdan, o'quvchilarni ko'proq amaliy ishlatdirib, mushohada yuritish, tahlil qilish kuchini o'stirish ham e'tiborga olingan. Shu o'rinda darslikda namuna sifatida keltirilgan parchalarning berilishida muallif hozirdan keyinga borish yo'lini tutganligini ko'ramiz.

Darslikning yana bir jihati, Sa'diy “kengrak bir maydon ham baynalmilalchilik yo'li”ni tutgan holda, arab, forsiy, usmonli, tatar, rus adabiyotiga ham murojaat qilgan, o'quvchini tanishtirib borgan. G'arb va Sharq adabiy oqimlari, adabiy maktablari ham muqoyasa qilib borilgan. Muallif Sharq adabiyoti va ulardagi adabiy oqimlar yuzasidan bir tizimga solinib ishlangan manba topmaganligi bois, bu masalada o'zining tahliliy qarashlarini keltirib o'tgan:

“Kitobda umuman g'arb adabiyotlari va undagi adabiy oqimlar bilan Sharq (bunda islom Sharqi olinadir) adabiyotlari va ulardagi adabiy oqimlar, adabiy maktablar bir-birisi bilan mumkin bo'lg'oncha tenglashdirilib borildi. Biroq umuman islom Sharqi adabiyotlaridagi (arab, forsiy, usmonli, tatar, o'zbek, qozoq, turkmanlardagi) oqimlar hali yaxshilab tekshirilib ochiq va ilmiy bir tuzulma (sistema) holig'a qo'yilmag'onliqdan bu to'g'rilarda hech bir turli ma'xazlar ham bo'lmag'anliqdan (yoki qo'limizg'a tusha olmag'anliqdan) ularga oid fikrlarimiz yolg'izo'z tahqiqotlarimizdan iboratdur. Shuning uchun bu to'g'rilarda ba'zi nuqtalarning tag'in tahqiqqlanmog'i kerakligini ko'rush ham mumkindir” [Sa'diy, 1924: IV].

Muallif bu darslikni hozirlash chog'ida 1923-yilgacha nashr bo'lgan rus adabiyotshunosligiga mansub asarlar, darsliklardan: Potebnya, Veselovskiy, Belinskiy, Ivanov, Jukovskiy, Melioranskiy, Samoylovich ishlaridan; usmonli olimlaridan Abdulrizo Tavfiq, Sualymon Nazif, Shihob Sulaymon, Ko'prulizoda darsliklaridan, Najib Osim ma'ruzalaridan foydalanganligi, va ikkinchi yoqdan o'zining ko'p yillik tajriba va tekshirishlari tayanch bo'lganini yozadi.

Yuqoridagilardan so'ng muallif alohida KIRISH ham keltirib, unda “adabiyot” ning qanday ma'nolar anglatishi va ayrim yondosh tushunchalar haqida to'xtalingan.

Darslikda mundarija tartib berilmagan.

Muallif ushbu bobda anglatish ravishlari, kinoya bilan istioraning ayirmasi, o'xshatish bilan istioraning ayirmasi, sifatlash (epitet), jonlantirish, giperbola, qarshilantirish, takror, so'rog' berish, nido-xitob, qaytish, kesish, bilmaslikka solish, uslub masalalari, uslub, uslubning xususiyatlari, so'z uslubi kabi bir qator atamalarni tavsiflaydi. Bobning eng asosiy nuqtasi uslub masalasi:

“Har zamonning o'z uslubi bo'ladi. Shoirlarning xususiy va mumtoz uslublaridan boshqa har davrning o'ziga maxsus va o'zida muharrirlarning ko'bachiligi yoqtiraturg'on umumiy ya'ni o'rtoq bir uslublari bo'ladi. Bir davrning shu uslubi ila ikkinchi bir davrning shundog' o'rtoq uslubi o'rtasida ba'zan juda katta ayirmalar bo'lub ketadir. Yassaviy davri uslubi bilan Navoiy davrining uslubi, Boburning sochma uslubi bilan Abulg'oziyning sochma uslubi orasidagi ayirmalar bizga muni ochiq ko'rgizadirlar. Avloniy va Tavallo kabilar davridagi uslub bilan hozirgi yosh o'zbek shoirlarining uslublari ham bu ikki davr uchun ochiq misoldir” [Sa'diy, 1924: 42]

Muallifning uslub xususiyatlariga oid fikrlari ham qimmatlidir. Uslub ochiq va sof bo'lishi kerakligini ta'kidlagan Sa'diy bu masalani asarning til xususiyatlari bilan bog'lab tushuntiradi hamda uslubni tushuniksiz va og'irlashtiruvchi sabablar sifatida quyidagilarni keltiradi:

1. Eskigan burung'i so'zlarni qo'llanishidan;
2. Hali boshqalarg'a ma'lum bo'lmagan yangi so'zlar kirgizishdan;
3. Ajnabiylikdan ya'ni chet tillardan yengil anglashilmayturg'an so'zlar olishdan bo'ladi.

Muallif xalq og'zaki adabiyoti hamda yozma adabiyot o'rtasidagi farqlarni (8 ta farq) o'z kuzatishlari asosida belgilab beradi. Uning fikriga ko'ra, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning omma adabiyotiga har doim ta'siri bo'lishi va buni islomgacha va islomdan keying turk folklori namunalarini muqoyasa qilib bilib olish mumkin.

Muallif bob davomida *adabiy-she'riy oqimlar* (shunday nomlangan – N.E ) xususida fikr yuritib, omma adabiyoti mavzusida aytilganidek, bu o'rinda ham adabiy oqimlarni ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishning o'zgarishi – fikr va hislarda o'zgarish – adabiy maktab va oqimlar paydo bo'lishiga sabab qilib keltiradi.

“G'arbda uyg'onish davridan keyin XV asrdan e'tiboran shu quyidag'i adabiy-she'riy oqimlarni yoki maktablarni ko'ramiz. Bu oqimlarning ko'bisin Sharq xalqlari va ayniqsa usmonlilar, tatarlar, o'zbeklar ham qozoqlar o'tkazib keladirlar:

1. Yolg'on klassiklik (klassizm) oqimi;
2. Oqartish yoki fikrchilik oqimi – rotsiyonolizm;
3. Hissiylik oqimi- Sentimentalizm;
4. Romantizm oqimi;
5. Chinliq oqimi (dializm)
6. Simvolizm;
7. Tabiiylik oqimi (naturalizm);
8. Modernizm.
9. Futurizm” [Sa'diy, 1924: 94].

#### **Xulosa.**

“Amaliy ham nazariy adabiyot darslari” o'rta maktablar uchun darslik sifatida yaratilgan. Darslik Turkiston jumhuriyati xalq maorif komissarligining ilmiy kengashi tasarrufidagi O'zbek bilim hay'ati taklifiga binoan o'zbek tilida o'zbek o'rta maktablari uchun darslik o'laroq tuzilgan. Abdurahmon Sa'diy dastlab ushbu darslik loyihasi sifatida 1923-yil “Bilim o'chog'i” jurnalining 1-2-sonlarida “O'zbek bilim yurtlari uchun ona tili va adabiyot programmasi”ni e'lon qildi.

Darslikda adabiyot tushunchasi, san'at, badiiy nutq, uslub, badiiy san'atlar, adabiy maktablar, adabiy oqimlar xususida so'z yuritilgan bo'lib, muallif G'arb va Sharq (Islom Sharqi) adabiyoti va ulardagi adabiy oqimlar, adabiy maktablarni o'zaro muqoyasa qilish yo'lidan boradi.

Darslikning o'ziga xos jihatlaridan biri, muallif adabiyotni san'at sifatidagi xususiyatlarini asos qilib, uni san'atning boshqa turlari bilan bir nuqtada jamlaydi va ko'p masalalarda “san'at” tushunchasidan foydalanadi. Epik va lirik tur namunalariga teng e'tibor qaratilgan hamda butun asar davomida bu ikki tur imkoniyatlari va zaruriylikining bir xil mavqeda turishini isbotlashga e'tibor qaratilgan. Sa'diy ilmiy atamalarni o'zbekcha, tushunilishi oson so'zlar bilan berishga harakat qilgani seziladi, shu bilan bir qatorda, rus va g'arb terminlarini kirill grafikasida ham keltirib o'tadi.

#### REFERENCES

1. ABDIRASHIDOV, ZAYNABIDIN (2019) *XX asr boshlarida Turkiston: ijtimoiy-siyosiy va intellektual jarayonlar*. Ankara: Sonçağ
2. SA'DIY, ABDURAHMON (1924) *Amaliy ham nazariy adabiyot darslari*. Toshkent: O'rta Osiyodavlat nashriyoti
3. DO'STQORAYEV, BOYBO'TA (2009) *O'zbekiston jurnalistikasi tarixi*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU
4. BOLTABOYEV, HAMIDULLA (2008) *Sharq mumtoz poetikasi*. Toshkent: O'zME davlat ilmiy nashriyoti
5. BOLTABOYEV, HAMIDULLA (1996) *Abdurauf Fitrat – adabiyotshunos*. Toshkent: Yozuvchi nashriyoti
6. TURDIYEV, SHERALI; QORIYEV, BOIS (2010) *O'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi bibliografiyasi* Toshkent: Fan nashriyoti